

Angor yog'dusi

Gazeta 1980-yil 26-noyabrdan chiqa boshlagan

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

Xalq deputatlari Angor tumani Kengashi va tuman hokimligining gazetasi

2025-yil 15-sentabr
№ 17 (3445) dushanba.

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!



Aholi salomatligini mustahkamlash maqsadida olib borilayotgan masalalar muhokama qilindi

Angor tumani hokimi, Xalq deputatlari Angor tumani Kengashi deputati Q.Mardonov tuman tibbiyot birlashmasi xodimlari hamda tegishli tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashdi. Uchrashuvda aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar, tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish va profilaktika ishlarini kuchaytirish masalalari atroficha muhokama qilindi.

Shu bilan birga, tibbiyot muassasalarida aholiga qulay shart-sharoit yaratish, moddiy-texnik bazani

mustahkamlash va kadrlar malakasini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Hokim tomonidan har bir yo'nalish bo'yicha mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi. Uchrashuv davomida hududni obodonlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ham o'rganilib, sanitariya holatini yaxshilash, atrof-muhit tozaligini ta'minlash hamda infratuzilmani takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilab olindi.

O'zbekiston XDP Angor tumani Kengashi

Mehnat daftarchasini raqamlashtirish bo'yicha ayrim savollarga javoblar

-Raqamlashtirilgan mehnat daftarchasi pensiya tayinlashda qanday yordam beradi?

-Ish staji to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatik tarzda aniqlanadi va pensiya tayinlash jarayonida sizdan qog'oz shakldagi hujjatlar talab etilmaydi.

-Mehnat daftarchasini raqamlashtirilganini qanday ko'rishim mumkin?

-my.mehnat.uz yoki my.gov.uz portallari orqali shaxsiy kabinetigizdan ko'rishingiz mumkin.

-Elektron mehnat daftarchasi ishonchli hisoblanadimi?

-Ha, u davlat tomonidan tasdiqlangan rasmiy elektron hujjat hisoblanadi.

Korxona arxivi yoki mehnat daftarchasi yo'qolgan taqdirda ish stajlarini qanday qilib "tiklash" mumkin?

-Agar fuqaroning ish staji to'g'risidagi ma'lumotlari yo'qolgan bo'lsa, ushbu vaziyatda yo'qolgan mehnat faoliyati davrlari to'g'risidagi ma'lumotlar sudning qarori



bilan belgilanadi. Bunday holatga tushib qolgan fuqarolar ish stajlarini tiklatish uchun sudga murojaat qilishlari mumkin.

Shokir MENGLIBOYEV,
Angor tumani Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi bo'limi bosh mutaxassisi

Davlat tili — qonuniy yuksalish va milliy birdamlik asosi

“Davlat tili masalasi – bu shunchaki til emas, bu – vatan, millat, mustaqillik, kelajak masalasidir.” — Shavkat Mirziyoyev.

Til – xalqning tafakkuri, ruhiyati, qadriyatlar xazinasi. Har bir millat til orqali o'z tarixini, madaniyatini, orzu-intilishlarini, kelajakka bo'lgan qarashlarini namoyon etadi. Til bor joyda millat bor, davlat bor. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida “Davlat tili – o'zbek tili” deb belgilangan. Bu oddiy gap emas.

Bu – mustaqillikning, suverenitetning, milliy o'zlikning huquqiy kafolatidir. Bugun o'zbek tili faqat aloqa vositasi emas, u davlat siyosatining ajralmas qismi, madaniyat siyosatining ustuvor yo'nalishi, jamiyat taraqqiyotining mezonidir. O'zbek tilining davlat tili maqomi rasmiy huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (yangi tahrirdagi 2023-yil, 30-aprel) 4-moddasida “O'zbekiston Respublikasining davlat tili – o'zbek tilidir.” Bu moddada tilning davlat boshqaruvi, hujjat yuritish, ta'lim, fan va madaniyatda asosiy aloqa tili sifatida ishlatilishi kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritib, uning yangi tahriri tasdiqlandi. Qonun 24-moddadan iborat bo'lib quyidagilarni tartibga soladi. Davlat tilining qo'llanish sohalari (davlat organlari, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, huquqiy sohalari), davlat tilining himoyasi va rivoji, til madaniyati va imlo me'yorlari, reklama, savdo, hujjat yuritishdagi til normalaridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida davlat tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6084-son (2020-yil 20-oktabr) farmoni asosida 2020 - 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Davlat tilida hujjat yuritishni to'liq yo'lga qo'yish belgilandi, Til madaniyatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi (24.08.1995-y.), 339-son qarorida O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlandi. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyati va boshqaruv idoralari, ommaaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarini joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish belgilandi.

Davlat tili milliy o'zlikning ustuni. Har bir xalq o'z tili orqali madaniyatini yaratadi, asrlar osha saqlaydi va avloddan avlodga uzatadi. O'zbek tili orqali biz Navoiy falsafasini, Bobur lirikasini, Cho'ponning milliy uyg'onish ruhini, Qodiriyning o'tmishga nazarini, Islom Karimovning mustaqillik mafkurasi anglaymiz va davom ettiramiz.Tilga hurmat – o'zligimizga hurmat. Tilni yo'qotish – milliy xotirani yo'qotish bilan barobar. Shu sababli davlat tilining maqomi mustahkamlab borilishi – bu siyosiy, ma'naviy, madaniy ehtiyojdir. Ko'p millatli jamiyatda yagona davlat tilining mavjudligi – ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlovchi omildir. O'zbek tilining davlat tili sifatida barchaning hayotiga kirib borayotgani – bu birdamlikning belgisi. Til – millatlararo ziddiyat emas, balki birlik omilidir. Bugun rus, qozoq, qoraqalpoq, tojik, koreys, ukrain millatiga mansub yurtdoshlarimiz ham o'zbek tilini e'zozlab, o'rganib, unda erkin fikr bildiraypti. Bu – eng katta



yutuqdir. Davlat tilining jamiyatdagi real holati, muammolar va yutuqlar bilan birga, e'tibor talab qiladigan jihatlar ham bor. Masalan rasmiy hujjatlar ayrim tashkilotlarda rus tilida yuritilmoqda, reklama va tashqi yozuvlarda til buzilishi, imlo qoidalariga amal qilinmaypti, yoshlar orasida aralash tilda so'z buzilishi holatlari uchramoqda, raqamli sohada ko'p dasturlar o'zbek tilida emas. Yechim sifatida har bir tashkilotda davlat tiliga mas'ul shaxs bo'lishi, davlat tilini bilish sertifikatini joriy etish, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda til madaniyatiga oid kontentlarni ko'paytirish zarur. Bugungi kunda O'zbekistonda til siyosati faqat madaniy emas, raqamli siyosat darajasiga chiqmoqda. O'zbek tilidagi Google Translate, Microsoft Translate platformalari ishga tushirildi. ChatGPT, AI yordamchi dasturlar, mobil ilovalar o'zbek tilini tanib, qayta ishlashni boshladi. Grammarly, DeepL kabi imlo tekshiruvchi dasturlari uchun o'zbek tili modullari yaratilmoqda.O'zbek tilida chatbot, ovozi yordamchi, audio kitoblari, e-kitoblari, videodarsliklari ko'paymoqda. Raqamli sohada o'zbek tilining o'rni nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda e'tirof etilishi uchun bu yo'nalish strategik hisoblanadi. Davlat tili siyosatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Yaqin yillarda quyidagilar ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.Har bir fuqaroni davlat tilida to'g'ri so'zlashga o'rgatish, ta'lim muassasalarida til madaniyatini chuqurlashtirish, tilga oid qonunchilikni mustahkamlash, mahallalarda til bilan ishlovchi til targ'iboti kengashlarini tashkil qilish, o'zbek tilining xorijiy tillardagi o'rganish dasturlarini kengaytirishdan iboratdir.

O'zbek tili – bu bizning qonunimizda belgilangan, tarixda pishib yetilgan, madaniyatda ulg'aygan, bugun yuksalishga yuz tutgan milliy iftixorimizdir. Ushbu tilda yuraklarimiz uradi, bolalarimiz ilk so'zlarini aytadi. O'zbek tilini e'zozlash – bu shunchaki madaniy o'dob emas. Bu – milliy o'zlik, tarixiy xotira va kelajak uchun mas'uliyatdir. Har bir fuqaro davlat tilida erkin so'zlashi, ijod qilishi, orzu qilishi kerak. Chunki davlat tili – yuksalish tili!

Guljahan QURBONOVA,
Angor tumani hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi

Elektr jihozlaridan to'g'ri foydalaning

Elektr tokining insonga ta'siri XVII asrning oxirida aniqlangan. Baland voltli elektrkimyo kuchlanishning xatarligini birinchi V.Petrov aniqlagan. Ishlab chiqarishdagi elektr jarohatlarini ancha keyin 1863-yilda 1883-yilda o'rganuvchan tokning ta'siri aniqlangan.

Sanoatda elektr energiyasidan keng qo'llanish yo'lga qo'yilganligi sababli elektr toki ta'sirida ro'y berishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar va ulardan saqlanish muhim masalalar qatoriga kirib bormoqda.

Elektr toki ta'sirining eng xavfli tomoni shundaki, bu xavfni oldinroq sezish imkoni yo'q. Umumiy baxtsiz hodisalar ichida, elektr tokidan jarohatlanish taxminan 5% ni tashkil etadi.

Lekin elektr jarohatlanish ichida og'ir turli, ayniqsa o'lim bilan tugaydigan hodisalar 70-75% ni tashkil qiladi. Elektr tokining xatarligi shuki, inson o'z sezguvchi organlari bilan, kuchlanishni bor- yo'qligini anglamaydi. Odam faqat elektr kuchlanish ostida qolgandan keyin himoyalovchi reaksiyasi ishga tushadi.

Biz elektr tokining odam organizmiga qay darajada ta'sir qilishini qisman aytib o'tdik. Elektr tokidan jarohatlanish juda og'ir hodisa ekanligi, ko'p foizi o'lim bilan tugashini bilamiz. Shuning uchun o'zimiz foydalanadigan elektr jihozlarimizdan to'g'ri foydalanishimiz kerak. Buni uchun biz quyidagilarga ahamiyat berishimiz lozim. Elektr jihozlaridan foydalanish qoidalariga amal qilish muhimligini, aks holda yong'in, elektr tokidan zararlanish va boshqa shu kabi nohush holatlar kelib chiqishi xavfi mavjudligini eslatib o'tmoqchimiz. Kundalik hayotimizda elektr jihozlaridan xavfsiz foydalanish bo'yicha

quyidagi ayrim ko'rsatmalarga rioya qilsak, kelib chiqishi mumkin bo'lgan noxush vaziyatlarning oldini olgan bo'lardik:

1.Elektr jihozlardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomada keltirilgan talablarni buzmaslik uchun undagi ma'lumotlarni diqqat bilan o'rganib chiqing. Unutmang, har qanday elektr jihozning o'z ekspluatatsiya muddati bo'lib, belgilangan muddatdan ortiq foydalanish ko'ngilsiz holatga olib keladi.

2.Maishiy sovutish uskunalarini uchun mo'ljallangan elektr o'tkazgich, rozetka va boshqa elektr jihozlar sozligiga doimo ahamiyat qaratish lozim.

3.Sovutish uskunalarining holatini nazorat qilib boring, ya'ni ularni o'z vaqtida ta'mirlash, ishdan chiqqan qismlarini almashtirish yodingizdan ko'tarilmasin.

4.Elektr tarmoqlarida yuklama hosil bo'lmasin. Buning uchun bir vaqtning o'zida bir nechta sovutish jihozlardan foydalanmaslik lozim.

5.Shteker rozetkaga to'liq kirganiga ishonch hosil qilish kerak, aks holda elektr o'tkazgich qizib ketishi oqibatida yong'in sodir bo'lishi mumkin.

6.Elektr simlarini gilam va boshqa to'shamalar ostidan o'tishga yo'l qo'ymang.

7.Elektr simlari ustiga og'ir buyumlar, masalan mebel qo'ymang, bu simning qizishi va yong'inga sabab bo'ladi.

Unutmang, mazkur qoidalariga amal qilish Sizing va yaqinlaringizning hayotini xavf ostiga qo'yishdan asraydi.

Hurmatoy XOLMURODOVA,
Angor tumani 1-son politexnikum o'qituvchisi





QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

TELEKOMMUNIKATSIYALARNI TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI TASHKIL ETILADI

2025-yil 21-avgust kuni “Telekommunikatsiyalar sohasida tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 142-son Prezident Farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko‘ra, Telekomunikatsiyalarni tartibga solish agentligi tashkil etiladi. Agentlik operator va provayderlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatining belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlangan rejaга muvofiq har oyda kamida 1 marotaba monitoring qilib boradi.

Agentlik moliyaviy va tuzilmaviy jihatdan hamda vakolati doirasida qaror qabul qilishda mustaqil hisoblanadi hamda o‘z faoliyatida Vazirlar Mahkamasiga hisobdor bo‘ladi.

M.TURDIYEV,

Termiz shahar Adliya bo‘limi davlat xizmatlari markazi direktori

ISH BERUVCHILAR UCHUN BELGILANGAN AYRIM TALABLAR BEKOR QILINADI

2025-yil 4-avgust kuni “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 126-son Prezident Farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko‘ra, ish beruvchilar uchun belgilangan quyidagi talablar bekor qilinadi:

bo‘sh ish o‘rinlariga bandlik organlari tomonidan yuboriladigan shaxslarni ishga qabul qilmaganlik uchun ma‘muriy javobgarlik;

bo‘sh ish o‘rinlari mavjudligi to‘g‘risidagi hisobotlarni majburiy taqdim etish.

O.MUHAMMADIYEV,

Termiz shahar Adliya bo‘limi davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi

ISH BERUVCHILARGA TO‘SIQ BO‘LAYOTGAN JAVOBGARLIK CHORALARI BEKOR QILINADI

2025-yil 4-avgust kunidagi «Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 126-son Prezident Farmoniga asosan, quyidagilar mehnat munosabatlari va kasbga o‘qitish tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalish va maqsadlari etib belgilandi, jumladan:

xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi mehnatga oid munosabatlarning samarali, adolatli va o‘zaro manfaatli tizimini yaratish;

ish beruvchilarning ehtiyojiga muvofiq ularni malakali kadrlar bilan ta‘minlash tizimini joriy etish.

2025-yil 1-sentabrdan ish beruvchilar uchun belgilangan quyidagi talablar bekor qilinadi:

bo‘sh ish o‘rinlariga bandlik organlari tomonidan yuboriladigan shaxslarni ishga qabul qilmaganlik uchun ma‘muriy javobgarlik;

bo‘sh ish o‘rinlari mavjudligi to‘g‘risidagi hisobotlarni majburiy taqdim etish.

B.XAITMURODOV,

Termiz shahar Adliya bo‘limi davlat xizmatlari markazi Servis menejeri

ABDULLA AVLONIY NOMLI DAVLAT STIPENDIYASI TA‘SIS ETILADI

2025-yil 10-sentabr kuni “Pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim tashkilotlarining talabalari uchun Abdulla Avloniy nomli davlat stipendiyasini ta‘sis etish to‘g‘risida”gi 162-sonli Prezident Farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko‘ra, 2025/2026 o‘quv yilidan pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim tashkilotlari talabalari uchun Abdulla Avloniy nomli davlat stipendiyasi ta‘sis etiladi.

Mazkur stipendiya pedagogika yo‘nalishidagi har bir oliy ta‘lim tashkilotining bakalavriat yo‘nalishida tahsil olayotgan 1 nafar oxirgi ikki kurs talabasiga tayinlanadi.

Sh.ESHQOBILOV,

Termiz shahar Adliya bo‘limi davlat xizmatlari markazi katta mutaxassisiA

KIMLARGA MA‘MURIY QAMOQ QO‘LLANILISHI MUMKIN EMAS

Qonunchilikka ko‘ra, ma‘muriy qamoqqa olish chorasi quyidagilarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin emas.

-3 yoshgacha bolasi bo‘lgan ayollarga;

-14 yoshgacha bo‘lgan bolasini yakka o‘zi tarbiyalayotgan shaxslarga;

-18 yoshga to‘lmagan shaxslarga;

-I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga ma‘muriy qamoqqa olish chorasi qo‘llanilishi mumkin emas.

B.JULLIYEV,

Termiz shahar Adliya bo‘limi davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassisi

O‘ZBEKISTONDA FUTBOL SOHASI RAQAMLASHTIRILADI

2025-yil 21-avgust kuni «O‘zbekistonda futbol sohasini raqamlashtirish va ommaviyligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 262-son Prezident qarori qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra, mamlakatimizda futbolni yanada rivojlantirishning asosiy maqsadlari etib quyidagilar belgilandi, jumladan:

moddiy-texnik bazani xalqaro talablarga moslashtirish va futbol maydonlarini ko‘paytirish orqali futbol bilan muntazam shug‘ullanuvchilar sonini oshirish;

iqtidorli futbolchilarni saralab olish, ularni professional futbolchi sifatida tayyorlash tizimini to‘liq raqamlashtirish.

Qarorga ko‘ra, “Milliy futbol elektron platformasi” axborot tizimi yaratiladi.

2026-yil 1-martdan futbol o‘yinlariga chiptalarni xarid qilish shaxsni identifikatsiya qilish hamda matritsali shtrix-kod (QR kod) texnologiyalarini qo‘llashni nazarda tutuvchi maxsus onlayn axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

F.HAMRAYEVA

Termiz shahar Adliya bo‘limi davlat xizmatlari markazi etakchi mutaxassisi

2025-2026-YIL KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORGARLIKNI HOZIRDAN BOSHLAYLIK

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlikni hozirdan boshlashimiz kerak. Yillar davomida yo‘l qo‘ygan xatolarimizdan biri – kuz-qishga tayyorgarlikni issiq mavsumda boshlashimizda. Oqibatda muammoli nuqtalardan bo‘lgan ijtimoiy soha obyektlarini ko‘mir bilan ta‘minlash va isitish tizimini barqaror ishlashi, elektr va gaz ta‘minoti tizimlarini barqaror ishlashini real sharoitlarda tekishirishning imkoni bo‘lmaydi. Ijtimoiy soha obyektlariga joriy kuz-qish mavsumi uchun mahalliy ko‘mirni belgilangan qoidalar asosida saqlash muhim vazifadir. Ko‘mir changidan ham yong‘in kelib chiqish

ehtimoli yuqoridir, shunday ekan har bir berilayotgan tashkilot va korxonalardagi ko‘mirlarni saqlash qoidalariga rioya qilish eng muhim vazifadir.

Yana bir ahamiyatli jihatdan biri bu aholiga tarqatilayotgan suyuqlirilgan gaz alohida nazoratga olinishi zarur. Nosoz suyuqlirilgan gaz balonlardan foydalanish oqibatida yashash uylarda ko‘plab yong‘inlar yuzaga kelmoqda. Fuqorolardan nosoz gaz balonlardan foydalanmasligini so‘rab qolamz.

Sh.TURSunov

Angor tuman FVB boshlig‘i o‘rinbosari podpolkovnik

TUMANIMIZDAGI YONG‘INGA QARSHI SUV HOVUZLARI HOLATI

Angor tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabr kunidagi “Yong‘in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 649-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida “Surxondaryo suv ta‘minoti” AJ Angor tumani bo‘limi xodimlari bilan birgalikda tumanimiz hududida joylashgan gidrantlar va suv hovuzlarining sozligi bo‘yicha

profilaktik tadbir olib borildi.

Har bir davlat tashkiloti hamda muassasalar doimiy ravishda suv hovuzlarining suv bilan to‘ldirib, yong‘in xavfsizligi avtomobili erkin suv olish uchun yo‘llar ochilish zarur!

B.ERGASHOV,

Angor tumani FVB 5-KYOQQ boshlig‘i

Odam savdosi–global muammo

“Qullik”, ya‘ni odam savdosi qurboniga aylanmoqda. Ular orasida ayollar, qizlar, keksalar, hatto yosh bolalar ham borligi judayam achinarli. Ushbu jinoyatning rivojlanishiga turk bo‘layotgan asosiy omillardan biri odamlarning chet elga borish va ishga joylashish haqida yetarli ma‘lumotga ega emasligidir. Achinarlisi, o‘zga davlat, begona bir muhitga tushib qolganlar mo‘may daromad ilinjida og‘ir jismoniy mehnatga yollanmoqda, ayollar esa tuban va fahsh ishlarga majbur etilmoqda.

BMT ma‘lumotiga ko‘ra, dunyoda har yili taxminan 2 million 700 ming kishi odam savdosining qurboniga aylanmoqda. Xalqaro ekspertlarning baholashicha, ushbu jinoyatchilik natijasida olinayotgan yillik daromad miqdori 7 milliard AQSH dollaridan oshib ketgan. Tashvishlanarlisi, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 80 foizi ayol va bolalardir. Har yili dunyo bo‘yicha 600–800 ming nafar ayol va bolalar aldov yo‘li bilan xorijiy mamlakatlarga olib ketilib, sotib yuborilmoqda.

Bugungi kunda dunyoda odam savdosini uchta keng tarqalgan turi mavjud bo‘lib, bular: jinsiy ekspluatatsiya (fohishabozlik), majburiy mehnat va odam a‘zolarini sotishdir.

Jinsiy ekspluatatsiya uchun asosan ayollar (shu jumladan qizlar) sotiladi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, ayollarning 72 foizi shu maqsadda sotilar ekan.

Majburiy mehnatga jalb qilinganlarning asosiy qismini esa

erkaklar tashkil qilar ekan. Bu ko‘rsatgich 85,7 foizni tashkil qilishi odam savdosidan jabr ko‘rgan erkaklarning aksariyati majburiy mehnat orqali amalga oshirilishini ko‘rish mumkin.

Odam a‘zolarini sotish jinoyati esa juda ham ko‘zga tashlanmaydigan odam savdosini turi bo‘lib, odam savdosi “tovarlari” umumiy sonining 1 foizdan ko‘p bo‘lmagan qismini tashkil qilar ekan.

Bu turdagi “tovarlar”ning yillik savdosi 1 mlrd dollardan ortiq miqdorni tashkil qilishi jinoyatning mazkur toifasi ham jiddiy muammo ekanligini tasdiqlaydi.

Bu jinoyatlarning asosiy sababi, tag zamiriga nazar tashlasak, ma‘naviy qashshoqlik, ochko‘zlik, dunyoga haddan tashqari hirs qo‘yish va nafsiga qul bo‘lishlikni ko‘ramiz.

Mana shunday iflos, jirkanch jinoyat bizning mamlakatimizni ham chetlab o‘tmayapti. Afsuski, fuqarolarimiz ham odam savdosi qurbonlariga aylanmoqda, buni ommaviy axborot vositalar orqali ko‘rib, eshitib turibmiz. Bularning barchasi davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan ushbu illatga qarshi qat‘iy choralar ko‘rishni, odam savdosiga jalb etilgan va undan jabr ko‘rgan hamyurtlarimizni muhofaza etishni dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda.

B.XRATOV,

Surxondaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta‘minlash boshqarmasi xodimi

Biznes ingliz tili – global muvaffaqiyat kaliti

Hozirgi jahon iqtisodiyotida ingliz tili biznesning universal tiliga aylandi.

Kichik tadbirkor bo‘lasizmi, transmilliy korporatsiya xodimi yoki masofadan ishlovchi frilanser – barchasi uchun ingliz tilida samarali muloqot qila olish juda muhim.

Biznes ingliz tili ish joyida muloqot qilish, elektron xat yozish, taqdimot o‘tkazish, muzokaralar olib borish va rasmiy uchrashuvlarda ishtirok etish kabi ko‘nikmalarni qamrab oladi. Yaxshi muloqot esa har qanday biznesda muvaffaqiyat garovidir.

Globallashuv sharoitida kompaniyalar turli mamlakatlardan kelgan mijozlar, hamkasblar va hamkorlar bilan ishlaydi. Shu bois ingliz tili xalqaro biznes operatsiyalarining asosiy tili sifatida qabul qilingan. Unda erkin muloqot qila olish kasbiy istiqbolni kengaytirishi tabiiy.

So‘nggi yillarda yurtimizda chet tillarini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorida ingliz tilini ommalashtirish va xalqaro sertifikatlarga tayyorlov bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Aynan shu islohotlar zaminida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Surxondaryo viloyati hududiy filalida 2024-yildan “Biznes ingliz tili” kurslari yo‘lga qo‘yildi va hozirgi kunda faoliyat olib bormoqda.

Kursning maqsadi yoshlarni global raqobatga tayyorlash, ularda til bilimi bilan birga kasbiy muloqot ko‘nikmalarini

shakllantirishdir. Tinglovchilar grammatika va lug‘at boyligini oshirish bilan birga xalqaro muzokaralar olib borish, taqdimot qilish, xorijiy konferensiyalarda ishtirok etish, rasmiy yozishmalar yuritish kabi zamonaviy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradi. Daraslarda “Business Vocabulary in Use”, “Market Leader”, “Business Benchmark” kabi xalqaro nufuzli qo‘llanmalar, entrepreneur.com va economist.com kabi manbalardan foydalaniladi.

Kurs ikki bosqichdan iborat bo‘lib, dastlabki bosqichda A1–B1 darajaga qadar til bilimi mustahkamlansa, keyingi bosqichda biznes leksikasi, muloqot strategiyalari va kasbiy yozishmalarga yo‘naltirilgan bilimlar o‘rgatiladi va qo‘shimcha 3 oylik tayyorlov davrida esa MULTI LEVEL, CEFR, IELTS, TOEFL imtihonlariga tayyorgarlik amalga oshiriladi.

Kurs bitiruvchilari qisqa vaqt ichida sezilarli natijalarga erishmoqda. Shu ma‘noda, “Biznes ingliz tili” kurslari oddiy o‘quv dasturi emas, balki yoshlarimiz uchun xalqaro muvaffaqiyat eshigini ochuvchi maydon bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu kurs orqali tinglovchilar zamonaviy bilim, mustahkam ko‘nikma va keng dunyoqarashga ega bo‘lib, jahon maydonida munosib o‘rin topish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Jo‘rabek MIRZAYEV

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi Surxondaryo filiali bosh mutaxassisi

Profilaktik tadbirlar

Prezidentimizning 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda Respublika mahallalarida Xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samardorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risi” dagi Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi hamda viloyat Qo‘riqlash boshqarmasi xodimlari tomonidan qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Angor tumanidagi Kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan O‘zbekiston va Navro‘z mahalalarida aholi o‘rtasida profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

Uchrashuvlar davomida fuqarolarga Qo‘riqlash xizmatining avzalliklari, obyekt va xonadonlarga o‘rnatilgan ogohlantirish vositalari “Tashvish tugmasi” haqida batafsil ma‘lumotlar berildi. Ushbu vositalarning ishlash tizimi amaliy

tarzda ko‘rsatilib foydalanish tartiblari tushuntirildi. Sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda qo‘llanilayotgan zamonaviy texnik vositalar albatta hudud xavfsizligi va fuqarolar xotirjamligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Targ‘ibotlar natijasida o‘z xonadonlari va savdo do‘konlari qo‘riqlovga topshirish istagini bildirgan fuqarolar bilan shartnomalar tuzilib ular ishonchli himoyaga olindi.

Shuningdek, tumandagi ko‘p qavatli uylarning kirish qismlariga “Tashvish tugmasi” o‘rnatilib, aholi vakillarining jamoat tartibini buzish yoki boshqa huquqbuzarliklar holatlari sodir etilganda xizmatdan foydalanish ko‘nikmalari shakllantirildi. Xavfsiz hudud mulkiy turdagi jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan keng qamrovli profilaktik tadbirlari viloyatda davom ettirilmoqda.

M.ESHMO‘MINOV,

Angor tumani qo‘riqlash bo‘limi xodimi

Aholini ro‘yxatga olish dasturida qanday savollar o‘z aksini topgan?

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 16-martdagi “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonunining 21-moddasiga asosan aholini ro‘yxatga olish dasturida familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi va joyi, yoshi, jinsi, millati, fuqaroligi, yashash joyi (turgan joyi), tillarni bilishi, ma‘lumoti, nikoh holati, bolalarining soni, uy xo‘jaligi tarkibi, uy-joy sharoitlari, bandligi, yashash uchun mablag‘lar manbalari, migratsiya (ichki va tashqi) kabi savollar o‘z aksini topgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, aholini ro‘yxatga olish dasturiga qo‘shimcha ravishda boshqa savollar kiritilishi mumkin.

Javoblari davlat sirlariga va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirga taalluqli axborotni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzuvchi savollar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ro‘yxatga olish varag‘ining shakllari aholini ro‘yxatga olish dasturi asosida shartlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Shaxsga doir ma‘lumotlarni yig‘ish tartibi qanday amalga oshiriladi? Shaxsga doir ma‘lumotlarni yig‘ish mazkur qonunning 23-moddasida belgilab qo‘yilganidek, respondentlar yashaydigan (turadigan) turar joylarni va boshqa xonalarni

aylanib chiqish chog‘ida yoxud mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ushbu maqsadlar uchun beriladiganxonalarda respondentlar so‘rovini o‘tkazish hamda ro‘yxatga olish varag‘larini to‘ldirish orqali amalga oshiriladi.

Shaxsga doir ma‘lumotlarni yig‘ish axborot xavfsizligini ta‘minlash talablarini hisobga olgan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Respondentlar so‘rovi davlat tilida o‘tkaziladi. Davlat tilini bilmaydigan respondentlar ona tilida yoki erkin ravishda tanlangan muloqot tilida so‘rovdan o‘tkazilishi mumkin.

Ro‘yxatga olish varaqlari ro‘yxatga oluvchi xodimlar tomonidan respondentlarning so‘zlari asosida to‘ldiriladi.

Aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish muddati ichida yashash (turgan) joyida hozir bo‘lmagan yoki voyaga yetmagan shaxslar bo‘lgan respondentlar to‘g‘risidagi shaxsga doir ma‘lumotlar ular uy xo‘jaligining voyaga yetgan a‘zolari tomonidan ma‘lum qilinadi. O‘ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxslar to‘g‘risidagi shaxsga doir ma‘lumotlar ularning vasiylari yoxud homiylari tomonidan ma‘lum qilinadi.

S.QULMATOV,

Angor tuman statistika bo‘limi bosh mutaxassisi

Angor tumanida faoliyat yuritayotgan korxona, tashkilot, mahalla fuqarolar yig‘inlari va fermer xo‘jaliklari rahbarlari diqqatiga!

2025-yil 3-chorak yakuni uchun taqdim etiladigan 4-mehnat shakli (choraklik) davlat statistik hisobotini yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalari (kichik korxona va mikrofirmalar, xususiy uy-joy egalari shirkatlari, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan tashqari) 2025-yilning 6-oktabrdan kechiktirmay;

2025-yil 3-chorak yakuni uchun taqdim etiladigan 4-FX shakli (choraklik) davlat statistika hisobotini fermer xo‘jaliklari 2025-yilning 5-oktabrdan kechiktirmay;

2025-yil 3-chorak yakuni uchun taqdim etiladigan 4-DX shakli (choraklik) davlat statistika hisobotini mahalla fuqarolar yig‘inlari 2024-yilning 5-oktabrdan kechiktirmay;

2025-yil 3-chorak yakuni uchun taqdim etiladigan 4 kb (qx) (choraklik) davlat statistika hisobotini Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar 2025-yilning

5-oktabrdan kechiktirmay;

Yuqorida qayd etilgan choraklik hisobotlarni elektron taqdim etish bo‘yicha tushuntirishlarni O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mtasining www. hisobot.stat.uz rasmiy saytidan olishingiz mumkin va viloyat statistika boshqarmasining www.surxonstat.uz saytidan yoki tuman statistika bo‘limidan olishlaringiz mumkin.

Statistika hisobotlarini o‘z vaqtida taqdim etmagan yoki noto‘g‘ri taqdim etgan xo‘jalik, korxona va tashkilot rahbarlari va mas‘ul xodimlariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi “Statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi Kodeks ning 215-moddasiga asosan ma‘muriy javobgarlik choralari ko‘rilishi to‘g‘risida ogohlantiramiz.

Angor tumani statistika bo‘limi

Tel: 76-31-21-258

TAʼLIM VA TARBIYANING INSON KAMOLOTIDAGI OʻRNI

Jamiyat taraqqiyoti, millat istiqboli va davlatning qudrati, avvalo, inson kapitaliga – bilimli, maʼnaviy barkamol, yuksak tafakkur va zamonaviy koʻnikmalarga ega shaxsga bogʻliqdir. Shu bois taʼlim va tarbiya masalasi har qanday davrda ham dolzarbligini yoʻqotmaydi.

Taʼlim–bilim manbai, insonning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, tafakkurini kengaytiradi. U orqali yoshlar ilmiy yutuqlarni egallab, zamonaviy texnologiyalarni oʻzlashtiradi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qoʻshadi. Bilimli inson oʻz hayotini ongli ravishda quradi, jamiyatda oʻz oʻrnini topadi, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Tarbiya esa – inson qalbini, maʼnaviy olamini sayqallovchi jarayondir. Tarbiya orqaligina bilim oʻz samarasini beradi. Chunki bilimli, ammo axloqan pok boʻlmagan inson jamiyatga foydadan koʻra koʻproq zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli ota-onalar,

ustozlar va jamiyatning barcha qatlamlari yoshlarga nafaqat bilim berishga, balki ularni halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashga masʼuldir.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy maktablar, oliy taʼlim muassasalari, ilmiy markazlar faoliyatida nafaqat taʼlim, balki tarbiya masalasiga ham alohida eʼtibor berilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, taʼlim – aqlni charxlaydi, tarbiya – qalbni nurlantiradi. Ikkisi uygʻun holda boʻlgandagina inson komillikka erishadi. Inson kamolati esa jamiyat taraqqiyotining eng muhim garovidir.

Xosiyat JUMAYEVA
25-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabi
oʻqituvchisi

“Kelajak soati” — yosh avlod qalbida yuksak maʼnaviyatni shakllantiradi

Yurtimizda taʼlim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar har tomonlama barkamol, yuksak maʼnaviyatli avlodni tarbiyalashga qaratilgani bilan alohida eʼtiborga loyiq. Bu borada joriy qilingan yangi tashabbuslardan biri – Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining 2025-yil 25-avgustdagi 308-sonli buyrugʻidir.

Mazkur buyruq asosida 2025–2026-oʻquv yilidan boshlab barcha umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida, jumladan, bizning 25-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabimizda ham har dushanba kuni “Kelajak soati” tashkil etilmoqda.

Bu soatlar davomida oʻquvchilar bilan Vatanga muhabbat, milliy gʻurur, maʼnaviyat va insonparvarlik tushunchalari yuzasidan suhbatlar olib boriladi. Darslar interaktiv uslubda tashkil etilib, bolalar faol qatnashadigan tarzda oʻtkazilayapti. Misol uchun, dastlabki haftadagi mavzu – “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” deb nomlanib, oʻquvchilarga Vatanga sadoqat, bilim olishning ahamiyati va kelajakda oʻz oʻrnini topish haqida soʻz yuritildi.

Darslarda oʻquvchilarning fikrlash qobiliyati, ijtimoiy

faolligi oshmoqda. Ular mustaqil fikr yuritib, oʻz orzu-maqсадlarini bayon qilishmoqda. Bu orqali biz faqat bilim berib qolmay, balki maʼnaviy yetuk shaxs tarbiyalash yoʻlida muhim qadamlar qoʻymoqdamiz.

Shu bilan birga, maktabimizda “Kelajak soati”ni yanada samarali oʻtkazish uchun sinf rahbarlari, fan oʻqituvchilari va psixologlar hamkorlikda ish olib bormoqda. Ota-onalar bilan ham hamkorlik yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, farzandlarining maʼnaviy tarbiyasiga bevosita taʼsir koʻrsatayotgan ushbu darslar haqida ularga ham maʼlumot berilmoqda. 308-sonli buyruq ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ushbu ishlarining barchasi farzandlarimizda maʼnaviy immunitet, yuksak fuqarolik masʼuliyati va faxr tuygʻusini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Biz – ustozlar, bu ishning ulkan masʼuliyatini his etgan holda, yosh avlod qalbiga maʼrifat chirogʻini yoqishda davom etamiz.

Kelajak – bilimli va maʼnaviyatli avlod qoʻlida!

Gulandon BERDALOVA,
25-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabi
oʻqituvchisi

Yosh avlod tarbiyasida “Kelajak soati” ning oʻrni

Yurtimizning barcha taʼlim maskanlarida 2-sentabr kuni bilimga chanqoq oʻquvchilarni oʻz bagʻriga oldi. Tumanimizdagi 33-sonli umumtaʼlim maktabimizda ham maktabga ilk qadam qoʻyyayotgan bolajonlar-u, oʻquvchilarning koʻzlarida quvonch, shijoat porlaydi.

Koʻtarinki ruhda oʻtgan bayram tadbiri tugagach birinchi qoʻngʻiroq jarang sochdi. Soʻngra 1-11-sinflarda, maktab va maktabgacha taʼlim Vazirligining tavsiyasiga asosan “Kelajak soati” ning “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” shiori ostida darslar oʻtiladi.

Bu darsda oʻquvchilarga dastlab mustaqilligimiz tarixi haqida maʼlumot berildi. Mustaqilligimiz uchun jon fido etgan jadid bobolarimiz siymolari monitorlarda gavdalantirildi. Mustaqilligimizning 34 yilligini qarshi olayotgan Yangi Oʻzbekistonda bugungi kunda roʻy berayotgan olamshumul yangiliklar va bunyodkorlik ishlari haqida videoroliklar namoyish etildi.

Xulosa shuki, “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” yashash-bu oddiy soʻz emas balki har bir



insonning hayotiy shiori boʻlishi kerak.

Dilorom TOʻXTASHEVA,
Dilafoʻz XOʻJAYOVA,
33-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabi
oʻqituvchilari

“Kelajak soati” – maʼnaviyatga boy avlod tarbiyasida yangi bosqich

Yurtimizda soʻnggi yillarda taʼlim sohasida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, maktab taʼlimi tizimini tubdan yangilash borasidagi tashabbuslar har bir pedagog, har bir taʼlim muassasasiga katta masʼuliyat yuklamoqda. Shu maʼnoda, Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tomonidan joriy etilgan “Kelajak soati” darslari bu boradagi muhim yangiliklardan biridir.

Yangi 2025/2026-oʻquv yilidan boshlab, respublika boʻyicha barcha umumtaʼlim maktablarida har haftaning dushanba kuni “Kelajak soati” darslari muntazam oʻtkazilishi belgilandi. Mazkur soatlarda oʻquvchilarni maʼnaviy jihatdan tarbiyalash, ularni Vatanga sadoqat, xalqparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida shakllantirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

“Kelajak soati” darslari — bu nafaqat dars, balki oʻquvchi qalbiga, fikriga va orzu-umidlariga yoʻl topish, ularning hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy platformadir.

Surxondaryo viloyati Angor tumani 23-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabida ham mazkur tashabbus asosida darslar tashkil etilmoqda. Xususan, yangi oʻquv yilining ilk kuni — 2-sentabrda maktabimizda “Kelajak soati” darslari “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori ostida oʻtkazildi. Unda oʻquvchilarga istiqlol yillarida erishilgan yutuqlar, Prezidentimiz tomonidan yoshlarga

yaratib berilayotgan imkoniyatlar, zamonaviy taʼlimning afzalliklari haqida atroflicha tushuntirildi.

Oʻquvchilar dars davomida oʻz fikrlarini bimalol ifoda etdilar, hayotga oid savollar bilan chiqish qilishdi, kelajakda qanday kasb egallamoqchi ekanliklari, yurtga qanday foyda keltirish haqida samimiy suhbat olib borishdi.

“Kelajak soati” darslarini mazmunan boyitish maqsadida, Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tomonidan maxsus metodik qoʻllanmalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, milliytarbiya.uz platformasida har hafta yangilanib boriladigan videoroliklar, suhbat mavzulari va tavsiyalar pedagoglar uchun katta koʻmak boʻlayapti. Maktabimiz jamoasi ushbu platformadan faol foydalanib, har bir sinfga mos, bolalar dunyoqarashiga yaqin, qiziqarli mavzular asosida “Kelajak soati” ni tashkil etmoqda.

Bugun hayot oʻzgarayotgan bir davrda yosh avlodni sogʻlom fikrli, milliy gʻurur va vatanparvarlik tuygʻulari bilan tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb. “Kelajak soati” ana shu ezuq maqsadlarga xizmat qilayotgan samarali tashabbusdir.

Boburjon BOZOROV,
23-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabining
maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha direktor
oʻrinbosari

«Kelajak soati» — barkamol avlod tarbiyasida yangi bosqich

Bugungi tezkor va murakkab davrda insoniyat oldida turgan eng katta vazifalardan biri – yosh avlodni barkamol, bilimli va maʼnaviyatli qilib tarbiyalashdir. Zero, kelajakni kimlar qurishi, ertangi kun qanday boʻlishi aynan bugungi yoshlarning dunyoqarashi, tarbiyasi va intilishlariga bevosita bogʻliq. Shu bois mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratilib, maktab taʼlimida turli xil yangi fanlar va darslar joriy etilmoqda. Ana shunday muhim tashabbuslardan biri – Kelajak soati darsidir.

“Kelajak soati” nomi oʻzida katta maʼnoni mujassam etadi. Bu dars faqatgina oddiy saboq emas, balki har bir oʻquvchining qalbiga nur olib kiradigan, uning dunyoqarashini kengaytiradigan, hayotga toʻgʻri qarashni oʻrgatadigan oʻziga xos maktabdir. Nega bu dars “Kelajak soati” deb nomlandi? Chunki unda yoshlarning kelajakka boʻlgan qarashlari, intilishlari, orzu-maqсадlari shakllantiriladi. Har bir daqiqa, har bir soat bevosita ularning ertangi hayotini belgilab beradi.

Bugun dunyo global muammolar girdobida yashamoqda. Iqlim oʻzgarishi, ekologik muammolar, axborot oqimining haddan tashqari koʻpligi, internet va texnologiyalar taʼsirida yoshlarning ongiga turli xil zararli gʻoyalar kirib kelishi – bularning barchasi jiddiy tashvish uygʻotmoqda. Shu vaziyatda yoshlarni toʻgʻri yoʻlga yoʻnaltirish, ularning qalbida milliy qadriyatlarga sadoqat, umuminsoniy fazilatlar, Vatanga muhabbat va kelajak uchun masʼuliyat tuygʻusini kuchaytirish har qachongidan ham dolzarbdir.

Kelajak soati darsi oʻz mazmuni va maqsadi jihatidan ana shu ehtiyojga javob beradi. Bu darsda oʻquvchilar nafaqat tariximiz, ajdodlarimiz merosi, milliy qadriyatlar bilan tanishadilar, balki zamonaviy davrda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari haqida ham fikr yuritadilar. Masalan, ekologik tarbiya, sogʻlom turmush tarzi, odob-axloq, texnologiyadan oqilona foydalanish kabi mavzular muntazam muhokama qilinadi.

Shuningdek, “Kelajak soati” darsi – bu yoshlar uchun oʻz fikrini erkin bildirish, savol berish va javob

olish, oʻzini izlash hamda jamiyatda oʻz oʻrnini topish imkoniyatidir. Oddiy dars jarayonida oʻquvchilar koʻproq nazariy bilim olsa, Kelajak soatida ular hayotiy tajribaga tayanadilar. Bu dars ularni mustaqil fikrlashga, erkin soʻzlashga, muloqot qilishga va eng asosiysi, jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega boʻlishga oʻrgatadi.

Kelajak soati shuningdek, tarbiyaning eng muhim omillaridan biri sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ota-onalar tarbiyasi, jamiyatning taʼsiri va maktabning roli bir-birini toʻldiradi. Ana shu uch omil orasida maktabning vazifasi oʻta masʼuliyatli. Chunki bola eng koʻp vaqtini maktabda oʻtkazadi, u yerda oʻqituvchidan nafaqat bilim, balki hayotiy saboq ham oladi. Shu nuqtayi nazardan, Kelajak soati darslari yoshlarning tarbiyasida alohida poydevor vazifasini bajaradi.

Bu darsning yana bir xususiyati – unda har bir oʻquvchi oʻzini kelajak egalari sifatida his etadi.

“Men kim boʻlaman?”, “Men Vatanim uchun nimalar qila olaman?”, “Men qanday inson boʻlishni istayman?” kabi savollar yoshlarning ongida shakllanadi. Oʻqituvchi esa ularga toʻgʻri yoʻl koʻrsatadi, ularda mustahkam eʼtiqod uygʻotadi.

Demak, Kelajak soati – bu oddiy dars emas, balki yoshlarning qalbi va ongini uygʻotadigan, ularni kelajakka ishonch bilan qarashga undaydigan, ularda masʼuliyat tuygʻusini kuchaytiradigan saboqdir. U bugungi kunda nafaqat maktab taʼlimining, balki butun jamiyatning maʼnaviy-maʼrifiy hayotida muhim oʻrin tutadi.

Har qanday jamiyatning taraqqiyoti ikki asosiy omilga tayanadi: ilm va maʼnaviyat. Ilm – insonni kuchli, bilimdon, zamonaviy texnologiyalarni egallagan qilib tarbiyalasa, maʼnaviyat – uni insoniylikka, halollikka, ezgulikka yetaklaydi. Bu ikki kuch birlashsa, jamiyat taraqqiy etadi, davlat qudratli boʻladi, inson baxtli yashaydi. Shuning uchun ham Kelajak soati darslari aynan maʼnaviyat va kelajak oʻrtasidagi mustahkam bogʻliqlikni oʻquvchilarga anglatishga xizmat qiladi.

Dilorom RAHMONQULOVA,
12-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabi
oʻqituvchisi

Bilim nima uchun kerak?

Inson tugʻilgan paytdan boshlab bilishga, oʻrganishga intiladi. Bilim — bu hayotimizni yoritadigan chiroq, toʻgʻri qarorlar qabul qilishga yordam beradigan kompasdir. Ajdodlarimiz bejiga “Ilm — nur, jaholat — zulmat” demaganlar. Kimda bilim boʻlsa, u atrofidagi voqealarni chuqurroq anglaydi, kelajagini ongli ravishda quradi.

Avvalo, bilim shaxsiy rivojlanish uchun zarur. Oʻqish jarayonida biz mantiqiy fikrlash, savol berish, solishtirish, xulosa chiqarish kabi koʻnikmalarni egallaymiz. Masalan, matematikada masala yechish nafaqat sonlarni bilish, balki muammoni bosqichma-bosqich tahlil qilishni ham oʻrgatadi.

Ona tili darslari esa fikrni ravon, aniq va odob bilan ifodalashga yordam beradi. Bu koʻnikmalar faqat sinfda emas, kundalik hayotda ham qoʻl keladi: xarid qilishda aldanmaslik, internetda feyk xabarlardan ehtiyot boʻlish, sogʻliq va xavfsizlik qoidalariga rioya etish — bularning barchasi bilimga tayanadi.

Bilim — kelajak kasbini tanlashda ham hal qiluvchi omil. Bugun dunyo tez oʻzgarayapti: yangi texnologiyalar, dasturlar, kasblar paydo boʻlmoqda. Kim

muntazam oʻqiydi, yangiliklardan xabardor boʻlib boradi, oʻz ustida ishlaydi, oʻsha kishi raqobatbardosh boʻladi. Masalan, informatika darslarida algoritmik fikrlashni oʻrgangan oʻquvchi keyin dasturlashga, sunʼiy intellekt, robototexnika yoki dizayn kabi sohalarga bimalol kirib borishi mumkin. Lekin shifokor boʻlishni xohlagan yigit-qizlar uchun ham biologiya va kimyo, muhandis boʻlishni istaganlar uchun esa fizika va matematika fanlari chuqur bilim talab qilinadi.

Bilim nafaqat shaxs, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham kerak. Ilm-fan yutuqlari tufayli mamlakatlarda tibbiyot rivojlanadi, ekologik muammolarga yechim topiladi, iqtisod kuchayadi.

Qanchalik koʻp yoshlar oʻqisa, oʻz sohasining ustasi boʻlsa, yurtimiz shunchalik tez rivojlanadi.

“Bilim — boylikdan afzal” degan hikmatning maʼnosi ham shunda: boylik tugashi mumkin, ammo chin bilim insonga umr boʻyi xizmat qiladi va boshqalarga ham foyda keltiradi.

Mastura BEKXANOVA,
12-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabi
oʻqituvchisi

“KELAJAK SOATI” — TAʼLIM-TARBIYANING ASOSIY OMILIDIR

Taʼlim-tarbiya bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasidir. Shavkat MIRZIYOYEV.

Oʻzbek xalqi azal-azaldan yosh avlod taʼlim-tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratib kelgan. Yurtimizda yosh avlodning ertangi kelajagi uchun qaygʻurish oliy maqsad sifatida qaralgan. Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirining “Maktabgacha va umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish toʻgʻrisida”gi buyrugʻi qabul qilindi. Ushbu buyruqqa asosan umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida har haftaning juma kuni oʻtkazilib kelinayotgan “Sinf soatlariga” 2025-2026-oʻquv yili davomida har haftaning dushanba kuni birinchi soatida “Kelajak soati” darslari sifatida oʻqitilishi belgilab qoʻyilgan.

Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida oʻquvchilarning davomatini yuritish, taʼlimga toʻliq jalb etish hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan ishlar Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi va Oʻzbekiston mahallalari uyushmasining 2025-yil 7-maydagi “Oʻquvchilar davomatini yuritish, taʼlimga jalb qilish ishlarini nazorat qilish va umumiy oʻrta taʼlim maktablarini huquqbuzarliklar holatidan kelib chiqib toifalash toʻgʻrisida”gi qaroriga asosan amalga oshirib kelinmoqda.

Kelajak soati – oʻquvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarining asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Kelajak soati darslari maktab oʻquvchilari oʻrtasida ularning atrof-muhitga va butun dunyoda boʻlayotgan oʻzgarishlarga boʻlgan dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradigan maxsus tashkil etilgan insoniy qadriyatlarga yoʻnaltirilgan faoliyat deb qarash mumkin. Ushbu dars mashgʻulotlari oʻquv rejasida belgilanmagan axloq, psixologiya va estetika fanlariga xos boʻlgan

bilimlarni ham oʻquvchilar ongiga singdirib boradi.

Har bir sinf rahbari kelajak soati darslariga tayyorgarlik koʻrayotganda alohida masʼuliyat bilan yondashmogiʻ lozim. Har hafta sinf rahbarlari tomonidan olib boriladigan kelajak soati yurt fuqarosini tarbiyalashda asosiy omil boʻlib xizmat qiladi.

Taniqli oʻzbek adibi Abdulla Avloniy oʻz qarashlarida taʼlim- tarbiyaga alohida eʼtibor qaratgan. Uning “Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir” degan fikrlari hozir ham oʻz qiymatini yoʻqotmagan.

Har bir dars reja asosida turli xil qiziqarli metodlar orqali olib borilsa, oʻquvchilar qiziqishi va faolligini oshirishga xizmat qiladi. Oʻquvchilarning qiziqishi yuqori boʻlgan oʻquv faoliyatini tashkil qilish esa, albatta, sinf rahbarining mahoratiga bogʻliqdir.

Biz ustozlar “Kelajak soati” mashgʻulotlarining yosh avlod tarbiyasida nechoqlik muhim ahamiyat kasb etishini unutmasligimiz lozim.

Shahnoza BOBOYEVA,
28-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabi
oʻqituvchisi

Bekor qilinadi

Angor tuman Mudofaa ishlar boʻlimi tomonidan 2023-yil 13-martda Panjiyev Ziyodulla Karim oʻgʻliga berilgan QK № 4259694 raqamli harbiy guvohnoma yoʻqolganligi uchun bekor qilinadi.

Angor tumani «Ilgʻor» MFYda yashovchi Yoʻdoshev Suhrobjon Botir oʻgʻlining, «Navroʻz» MFYda yashovchi Normuratov Juraali Turayevichning, «Qadimiy Angor» MFYda yashovchi Eshpoʻlatov Faruz Oʻktamovichning, «Gulzor» MFYda yashovchi Musurov Alimardon Choriyevichlarning haydovchilik guvohnomalari hamda «Gulzor» MFYda yashovchi Eshqulov Nurali Baxtiyor oʻgʻlining ogohlantirish taloni yoʻqolganligi uchun bekor qilinadi.

Seminar tashkil etildi



Ayollar klubi doirasida ekologik madaniyatni oshirishga bag'ishlangan seminar tashkil etildi. Angor tumanidagi "Navbahor" MFYda joylashgan Markaziy kutubxonasida "Ayollar klubi" seminari bo'lib o'tdi. Tadbirida tumandagi xotin-qizlar, otinoyilar va mahalla faollari ishtirok etdi.

Seminar davomida ishtirokchilarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori mazmun-mohiyati, uning asosiy yo'nalishlari va dolzarb vazifalari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Tadbirning asosiy maqsadi — ushbu qaror ijrosini

ta'minlash, ekologik ong va madaniyatni oshirish, aholining tabiatga nisbatan mas'uliyatini kuchaytirish hamda partiyaning dasturiy maqsadlarini keng jamoatchilik orasida targ'ib qilishdan iborat bo'ldi.

Seminar ochiq muloqot shaklida o'tdi. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilishdi va ularga javoblar berildi.

Bunday ma'rifiy uchrashuvlar xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ekologik masalalarga befarq bo'lmalik va partiyaning ijtimoiy-ma'naviy targ'ibot ishlarida faol ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Angor tumanida oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha eko-reyd

Angor tumani Sharq guli mahallasida joylashgan Angor tumani dehqon bozori go'sht va dudlangan mahsulotlar hamda yarim tayyor oziq-ovqat do'konlarida O'zbekiston Ekologik partiyasi Angor tumani Kengashi raisi M.Mengliyeva hamda tuman Sanitariya-epidemiologiya bo'limi xodimlari hamkorligida eko-reyd tadbiri o'tkazildi. Tadbirning asosiy maqsadi — go'sht mahsulotlaridan zaharlanishning oldini olish va sanitariya qoidalarga rioya etilishini nazorat qilishdir.

Reyd davomida savdo xodimlariga tibbiy ma'lumotnomalarni o'z vaqtida yangilab turish, ish vaqtida doimiy ravishda fartuk kiyish va savdo joylarida sanitariya talablariga qat'iy amal qilish zarurligi tushuntirildi. Shuningdek, mahsulotlarning yaroqlilik muddati diqqat bilan

ko'zdan kechirildi. Natijada muddati o'tgan mahsulotlar aniqlanmadi, bu esa tadbirkorlarning gigiyena va sifat talablarga amal qilayotganidan dalolat beradi.

Mazkur eko-reyd tadbiri aholining salomatligini himoya qilish va sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Ekologik partiyasi hamkor tashkilotlar bilan birgalikda kelgusida ham sanitariya-gigiyena targ'ibotini kuchaytirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish bo'yicha izchil ishlarni davom ettiradi.

Saodat QOBILOVA

Jamoatchilik - nazorati

Angor tumanida suv ta'minoti va ekologik muammolar bo'yicha jamoatchilik eshituv o'tkazildi

2025-yil 8-avgust kuni O'zbekiston Ekologik partiyasidan saylangan Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining deputatlik guruhi "Jamoatchilik eshituvini" o'tkazdi. Tadbirga O'zbekiston Ekologik partiyasi Angor tumani Kengashi raisi M.Mengliyeva, tuman deputatlari, partiya faollari hamda Angor tumani Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi vakillari ishtirok etdi.

Eshituv davomida Angor tuman Suv yetkazib berish xizmati rahbari Ch. Rajabov 2025-yilning 7 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar va yil yakunigacha bajarilishi rejalashtirilgan loyihalar yuzasidan hisobot berdi. Xususan, mahallalarda ichki sug'orish tarmoqlari ta'mirlandi, suv o'lchash uskunalari o'rnatildi. Umumiy 30 km betonlash ishlari rejalashtirilgan bo'lib, shundan 24,8 km bajarildi, qolgan qismi mavsum yakunida amalga oshiriladi. Deputatlar aholining ichki arqlarni bitonlash va suv ta'minoti bo'yicha murojaatlari yuzasidan savol-javob o'tkazdilar.

Eshituv yakunida aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish va suv ta'minoti muammolarini joylarda o'rganish, jamoatchilik nazorati va monitoring ishlarni davom ettirish shuningdek, kelgusida hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar belgilab olindi.



Angor tumanida Xalqaro turnalar kuniga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi

Har yili 8-sentabrda dunyo bo'ylab Xalqaro turnalar kuni nishonlanadi. Bu sana — nafaqat go'zal va nozik turnalarni asrashga, balki tabiat va biologik xilma-xillikni muhofaza qilishga e'tibor qaratiladigan muhim ekologik bayramdir.

Xalqaro turnalar kuni munosabati bilan O'zbekiston Ekologik Partiyasi Angor tumani partiya tashkiloti tomonidan Barkamol avlod maktabida o'quvchilar ishtirokida targ'ibot seminari o'tkazildi. Seminarada turnalarning migratsiyasi, ularning ekologiyaga foydasi, hamda tabiatdagi o'rni haqida tushunchalar berildi.

Bahorda yurtimizga qaytib kelib, kuzda issiq o'ikalarga uchib ketadigan turnalar — nafaqat tabiat go'zalligi, balki ekologik muvozanatning ajralmas qismi ekani ta'kidlandi. Tadbir davomida savol-javoblar o'tkazilib, mavzuga oid

videoroliklar namoyish etildi.

Shuningdek, bugungi kunda turnalarni yo'qolib ketishdan asrash maqsadida ekologlar tomonidan tuxumlarini boshqa qushlarga botirish kabi zamonaviy usullar bilan ko'paytirish choralari ko'rilayotgani aytib o'tildi. Turnalar — endilikda tabiatni muhofaza qilishning tirik ramziga aylangan.

Xalqaro turnalar kuni — bizga tabiat ne'matlarini asrash va har bir jonzodning yashash huquqini qadrlashini eslatadi. Turnalarni asrash orqali biz nafaqat muvozanatni saqlaymiz, balki kelajak avlodga yanada go'zal, barqaror va yashil dunyoni qoldirish yo'liga muhim qadam tashlaymiz.

M.MENGLIYEVA,
O'zbekiston ekologik partiya tashkiloti
tuman kengashi raisi

Toza havo tadbirlari o'tkazilmoqda

Angor tumanida "Toza havo" tadbiri o'tkazildi. Tadbir davomida avtomashinalar texnik ko'rikdan o'tkazilib, atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdori maxsus asbob-uskunalar yordamida o'lchandi. Avtomobil egalari bilan atrof-muhitni ifloslantirish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi, texnik nosozliklarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Shuningdek, tumanda profilaktika tadbirlari hamda ekologik targ'ibot ishlari izchil davom ettirilmoqda.

A.TO'RAMURODOV,
Angor tumani Ekologiya bo'limi bosh mutaxassisi



BIR CHIMDIM MA'NAVIYAT



Ismingizning ma'nosini bilasizmi?

Tumanlarning birida ziyolilar davrasida islarning ma'nolari haqida guruh qizidi. Har bir kishi o'ziga qo'yilgan ismning nima maqsadda, kim tomonidan qo'yilganligini izohlab berdi. Ammo, yaxshi kiyingan, chiroyli, kelishgan o'qimishli bir ayolning momosi qo'ygan ismi Ruqiya ekan. Lekin uni zamonaviy emas deyishib, Roza deb atasharkan. Ruqiya ismining nima ma'no berishini bilmas ekan. Shunda o'zini "dono" hisoblab yuradiganlardan biri "Buning ma'nosi Bahor, Siz juda go'zalsiz, bahorga o'xshaysiz. Shuning uchun Ruqiya deyishadi", deb qoldi. Uyga kelgach, darhol Ernest Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi" kitobini varaqlab, Ruqiya arabcha so'z bo'lib, o'zbekchada sehr, tumor yoki yolvorib, iltijo qilib olingan qiz ma'nolarini berishini topdim. Xalqimizda farzandi ko'p turmaydiganlar bu ismni qo'yishi esimga tushdi.

Haqiqatan ham, xalqimiz hali farzand dunyoga kelmadanoq, unga ism tanlashga kirishib ketadi. Bolasining mard, jasur, pahlavon, go'zal, olim, amaldor, san'atkor bo'lishini orzu qiladi. O'shalariga o'xshasin deb, ularning nomini qo'yish harakatida bo'lishadi.

Biroq, ko'pni ko'rgan keksalar farzandning tug'ilish davri, tanasidagi belgilar, sog'ligi, fe'lga qarab ism qo'yishadi. Hattoki, yoshlarning ko'ngli qolmasin deb tug'ilish guvohnomasiga o'ta-onasi, aka-opasi tanlagan zamonaviy ismni yozdirib, uyda boshqa ism bilan atashadi. Natijada bir bolaning 3-4 ismi paydo bo'ladi. Laqabini qo'shsa, atamalar soni yana ortadi. Masalan, ota-ona o'g'lini mashhur san'atkor bo'lsin, deb Ozodbek qo'yishdi. Ammo u yig'loqli, kasal bo'lavergach, qariyalar bolangning kindigi o'ralib tushgan, shuning uchun ismini O'ral qo'yinglar deb maslahat berishadi. Shu bilan yig'lamay qolsa bo'ldi, deyishib O'ral deb atay boshlashadi. Bu bilan ham yig'lashi qolmagach, biri badanida nori bor ekan deb Nortoqi deb atashni taklif qiladi. Onasi erkalab Pepi desa, bobosi yig'loqli uchun Ohangboy deydi. Shunday qilib, hali bir yoshga to'lmagan bolaning 4 ta ismi paydo bo'lgan. Hali kim biladi katta bo'lgach, tengdoshlari, sinfdoshlari, mahalladoshlari yana qanday yangi nomlar qo'yadi unga.

Yaxshi ism-insonga husn deyishadi. Ism jismga monand bo'lsa, juda soz. Har bir kishi ismi bilan g'ururlanishi, quvonishi va undan qanoatlanishi kerak. U buni umri davomida e'zlaydi. Lekin, ba'zilar ota-onasi, bobo-momosi qo'ygan ismni eskilik sargitib deya, o'zicha Gulya, Borya, Roza, Boriya, Dilya, Dilor, Joni deb atashlarini xush ko'rishadi.

Qadimdan turkiy xalqlarda odamzod ismlarida orzu-armonlarini, umidlarini ifodalash bilan birga hayvon, parranda, fasillar, oylar, udumlar, Olloh, payg'ambarlar, choriyorlar, aviylolar, olimlar, shohlar, shoiralar, pahlavonlar nomlarini ifoda etishgan. Yaqin qarindosh-urug'lar farzandlariga bir xil ism qo'yishmagan. Ismlar sof turkiy, arabcha, forsch, tojikcha, mo'g'ulcha, ruscha, yunoncha, yahudiycha, o'zbekcha, hindcha, xitoycha bo'lishi mumkin. Ba'zida ularning farqiga bormaydilar. Masalan, Qilich o'zbekcha so'z bo'lib, jang quroli; Sayfi arabcha, o'zbekchaga qilich demakdir. Ikki so'z ham bir ma'noni beradi. Sayfi, Sayfiali, Sayfiddin, Sayfiox'ja, Sayfulla, Sayfulmalik, Sayfulmulik, Qilich, Qilichberdi, Qilichmuhammad, Qilichniyoz, Qilichturdi, Qilichxon tarzida uchraydi. Ular Allohning qilichi, Islom qilichi, shohning qilichi, podshohning qudrati, din qilichi, Alining qilichi, Allohdan iltijojar qilib so'rab olingan qilichdek o'tkir bola, qilichdek mustahkam bo'lib tursin, ya'ni yashasin, uzoq umr ko'rsin maqsadlarini ifodalagan. Abdumurod va Qulmurod ham shu kabi.

Azaldan xalqimiz o'g'il bolani orzu qilgan. Chunki u nasl davomchisi, ota-onaning chirog'ini yoquvchi, nomini qoldiruvchi deb hisoblangan. Shuning uchun oilada qiz bola ko'p tug'ilaversa, to'xtab qolsin deb, To'xtasin, u o'g'il bo'lsin deb Ulbibi, Uloy, Ulbo'lsin, O'g'ilo'y, Qizlarbas, Uljamol, Toshjamol, Sebjamol, Uldona, Ulbas, Ulbegim, Ulbeka, O'g'ilbeka, Ulbibi, Uljon, Ulxon, Ulbola, Ulbuvi, Ulbo'l, O'lbo'lsin, Basanda, Uljahon, Uljon, Ulzamon, O'g'iljuma, Ulniso, Ulsuluv, Ultoy kabi ismlarni qizlariga qo'yishgan.

O'zbeklar bolajon xalq, doimo farzandim deb yashaydi. Oilada o'g'il-qizlarining ko'p bo'lishini istaydi. Shuning uchun Ko'chkin yaxshilik tomon burilsin, ya'ni umri uzoq bo'lsin. Bolasi turgan hollarda qo'yiladi. Ko'chkinbek, Ko'chkinjon, Ko'chkinoy shakllari ham uchraydi. Toshmurod, Toshpo'lat, Bo'ritosh, Zorbibi, Zarbibi, Istati, Istak, Istam, Gadoy, Gadoyxon, Yetim, Po'lat, Jonpo'lat, Toshmirza, Bolta, Aqida, Kokil, Muyassar, Niyoz, Orzu, Tursin, To'xta, Avaz, Avazboy, Avazjon, Visola, Avazgul, Avazbek, Avazali, Avazberdi, Armongul, Avazmurod, Avazoy, Aka, Annaturdi, Armonboy, Annatursun, Annaxol, Mahkamtosh, O'rin, Badal, O'rinoy singari ismlar ham bolasining yashab ketishini istab qo'yilgan.

Oylar, hafta kunlari, bayramlarga atab ham ism qo'yilgan. Masalan, haftaning juma kuni tug'ilgan chaqaloqqa Juma, Jumaqul, Jumanazar, Jumaniyoz, Jumaxol, Jumaqul, Odina, Oyjuma, Oqjuma, Anna, Annaali, Annageldi, Annagul, Annaqul, Annaqurbon, chorshanba kuni tug'lsa Chorshanbi, yakshanba kuni dunyoga kelsa Bozor, Bozorboy, Mirbozor, Bozoroy, seshanba kuni tavallud topsa Qulsoat, Oysoat, Dursoat, Ismoil deb atashgan. Dushan, Dushanali (dushanba kuni tug'ilgan) kabilar.

Asad, Shamsiya, Shanbagul, Asadqul, Ashur, Muharram, Ashurgul, Ashurali, Bayram, Bayramali, Barot, Barotali, Bahor, O'roz, O'rozali, O'rozbek, Behruz, Biryajab, Yozbeka, Yozbibi, Yozberdi, Yozboy, Yozgul, Yozgeldi, Yozmurod, Zulqad'a, Qovus, Kuzboy, Laylon, Layson, Nayson, Lola, Mavlud, Mavluda, Mayram, Maysaxon, Mayxon, Maya, Mayagul, Mayyago'zal, Mehrali, Mehrjon, Mizon, Muharram, Navbahor, Gulbahor, Navro'z, Navro'zboy, Navro'zxon, Ozardod, Oybahon, Oyo'la, Navto'lgan, Rabia, Rajab, Rajabali, Rajabqul, Raymazon, Robiya, Ro'za, Sabzagul, Savr, Savron, Sarvi, Savri, Savur, Savura, Safar, Sovur, Shabon, Shavoll, Eshqurbon, Qavsboy, Qurbon, Qurbonoy, Qoplon, Asad, Qorkeldi, Qorxol, Hayitmurod, Hayit, Hayitgul singilar esa oy va faslar nomiga qo'yilgan.

Hattoki, ismlarga qarab sinchilar oilada o'g'il yoki qiz ko'pligini, sog'lom yoki kasalligini, tanasidagi belgilarni bilib olishgan. Ma'lumki, o'zbeklar qabila, qavm va urug' hamda dahalarga bo'lingan. Shuning uchun ismlar orasida Qirg'iz, Qozoq, Qiyot, Qimchoqul, Qo'ng'iro't, O'zbekxon, Qamchibek, Qangliboy, Nayman, Baroq, Uyg'ur, Yovmud, Saroy, Boyqo'ng'ir, Loqay, Sart, Bo'ka, Xitoy, Lochin, Serka, Bo'ron, Mang'it, Sirg'a, Sirg'ali, Marqa, Bo'ronoy, Do'rmon, Do'rmonboy, Jaloyir, Jomboy, Uzun, Qalmoq, Norin, Olchin, Olchinboy, Mo'g'ilxon, Turkboy, Mingqul, Mingqobil, Mingali, Mingboy, Oytug'von, Hazora, Qorabarlos, Qora, Qoramon,

Qoraxon, Quvabek, Oybek, Qqarboy, Toyloq, To'por, To'qboy singilarlar uchraydi.

Shunisi xarakterliki, ilgari xalqlar urug', qabila bo'lib yashashgan. Hozir ham ba'zi qishloqlarda bu an'ana saqlanib qolgan. Shuning uchun ular o'zida oilada to'rtinchi farzand yoki tug'ilishidagi ba'zi belgilariga qarab bir xil ismlar qo'yishga to'g'ri kelgan. Bir-birlaridan farqlash uchun laqab qo'yilgan. Bunda uning qaysi urug'danligi, fe'li, yutuqlari, kamchiliklari, odatlari o'z ifodasini topgan. Masalan, Parda cho'loq, Parda qiyshiq, Parda takir, Parda suzma, Chori o'tirikchi, Chori bo'dana, Chori kemshik, Chori galvars, Chori bo'rta, Ko'chkin g'uy, Ko'chkin kasmal, Ko'chkin dustaman, Haydar kalyon, Haydar g'usan, Haydar kuyik, Haydar ko'sa, Haydar polvon, Haydar chabog'on kabi.

Turkiy qavmlarda bolaga ism qo'yishda qo'shma otlardan foydalanish udumi saqlangan. Yakka so'zni irim qilishgan. Shu boisdan qo'shma so'zlardan ot yasalgan: Norquvvat, Tojimurod, Nurislom, Xudoyberdi, Nortoqi, Normurod, Norsulton, Bobonazar, Eshmurod, Norxol, Momosulton kabi.

Ular namoluri chuqur mazmun kasb etgan. Masalan, Norquvvat (forscha-tojikcha, arabcha) qizil xolli o'g'il, nor tuyadek chidamli, baquvvat, kuchli, qudratli bo'lsin, deb umid qilishgan. Bundan tashqari, nor qozining ma'nolari bisyordir.

- Xol, qizil xol; badandagi tug'ma qizg'ish dog'; xushruy, chiroyli; baxtli, xosiyatli xol bilan tug'ilgan bola.
- Bir o'rkachli erkak tuya; qudratli, baquvvat.
- O't, olov, alanga.
- Anor, badanida anor rangli qizg'ish dog', belgi bilan tug'ilgan.

Aslida ota-onam, momalarimning hikoya qilishlaricha, tug'ilganimda menga dastlab Bekmurod deb ism tanlashgan ekan. Bu o'zbekcha bek — amaldor, murod (arabcha). Kelajakda amaldor bo'lib, murod maqsadiga yetsin degani. Ammo, biroz kasalmand, nimjon bo'lganligim sababli Chinnixol momom ismimni rasm-rusumini qilib, Norquvvat deb o'zgartirgan ekan. Bolaligimda tengdoshlarim bu so'zni to'g'ri talaffuz qilishga qiynalib, Tongquv deb ketishgan. Natijada bolalikdagi ismim Tongquv ham bo'lgan.

O'zbek oilalarida hattoki birinchi (O'ral), ikkinchi (Ergash, Yo'ldosh, Qo'ldosh, Hamro), uchinchi (Qur'on, Uchboy, Qur'onboy), to'rtinchi (Chori, To'ra, Qorachori, Sultonchori), beshinchi (Panji, Beshmurod, Beshbola), oltinchi (Oltiboy), yettinchi (Yettiboy, Yettinazar), sakkizinchi (Sakkizboy), to'qqizinchi (To'qqiz, To'qqizxon), o'ninchi (O'noy, O'nim) farzandlarga atab qo'yiladigan ismlar mavjudligi xalqimizning donoligidan dalolatdir. Kenja bolalarning ham alohida nomlari bor.

Yana shunga e'tibor berish lozimki, ba'zan bittagina harf, talaffuzda bir xil eshitilsa-da, boshqa-boshqa ma'nolarni bildiradi. Masalan: Tangir (o'zbekcha) — farosatli, qobiliyatli, xotirasi o'tkir, aqli, tiyrak. Tangri (o'zbekcha, xitoycha) Alloh, Xudo, ko'k osmon. Tangriberdi, Tangriqul, Tangriboy, Tangribek shakllari bor.

Feruz (forscha-tojikcha) — g'olib, Muzaffar, yengilmas. Firuz (forscha-tojikcha) — baxtli, to'leli baland, nurli, ko'k tusli qimmatbaho tosh; nur sochuvchi. Toir (arabcha) — parvoz qiluvchi, yuksakka ko'tariluvchi, ozod, hur, iqboli baland bola. Tohir, Toyir (arabcha) — pokiza, dog'siz, nuqsonsiz, begunoh, Fayz (arabcha) yoqimli, muloyim, jozibali, chiroyli, ko'r'kam yoki ne'mat, farovonlik. Fayoz, Fayyoz (arabcha) — o'ta saxiy, olihimmat, mehribon, Faiz (arabcha) — yengilmas, g'olib, muzaffar yoki olihimmat, saxiy.

Surat (arabcha) — ko'rinish, shakl-shamoyili sohibjamol qiz, Sur'at (arabcha) — chaqqon, tezkor, jadal, epchil, uddaburon, mehnatkash, Safiya (qadimgi yunoncha) — aql, donishmandlik. Sofiya (arabcha) — sof, pokiza, pokdomon, mas'uma, iffatli. Said (arabcha) — baxtli, saodatli, omadli, yoki to'leli baland, o'suvchi, yuksaluvchi, Saidbobo, Saidjon, Saidxon, Saida shakllari ham uchraydi. Sayid yoki Sayyid (arabcha) — xo'ja, ega, boshliq, rahbar. Bu so'z Muhammad (s.a.v.) avlodlarining faxriy unvonidir. Aslzoda, zodagon, Sayida, Sayidbek, Sayitxon, Sayidjon. Soib (arabcha) — to'g'ri yo'lga boshlovchi. Soyib (arabcha) — ozoda, pokiza, Meng va Ming, Xoja, Xo'ja, Xojal, Hojar ham shu singari.

Bunday ismlar juda ko'p. Farzandga ism tanlaganda, bularga e'tibor qaratis kerak. Shuningdek, milliyligimizdan kelib chiqishimiz, shu bilan birga, kelajakni o'ylab zamonaviylikka intilmoq dardkor. Talaffuz qilishda, yozilishda buzilmaydigan bo'lishi muhimdir. Hujjatga yozdirayotganda esa o'zbek tilining imlo qoidalarga rioya etmoq joiz.

Afsuski, ba'zi hollarda tug'ilish guvohnomasiga chiroyli ismlar noto'g'ri yozilish holatlari uchraydi. Hujjat bo'yicha yozish kerak, deyishib til qoidalarni buzishmoqda.

Yana bir gap. Nazarimda keyingi yillarda islarning ma'no-mazmuniga emas, chiroylligiga yoki jarangdorligiga mahliyo bo'lish oqibatida bir xil ismlar ko'payib ketayapti. Ayniqsa, mashhur xonandalarning, artistlarning nomlarini qo'yish a'ldi.

Ba'zida ota-ona, bobo-momo, amma, xola, tog'a, aka, onalar katta niyat qilishib, mashhur kishilarning nomlarini chaqaloqqa qo'yishadi. Ammo bu otni u ko'taraolmay kasallikka chalinishi yoki to'g'ri ta'lim-tarbiya berilmaganligi natijasida jinoyatga qo'l urishi mumkin, ya'ni yaxshi kishilarning nomini oqlash o'rni unga dog' tushirib qo'yadi.

"O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi qonuni (1995-y) ning 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, milliatidan qat'iy nazar, ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar", deyilgan. Demak, hujjatlarni buzmasdan, o'zbek ogografiyasi qoidalarga rioya qilgan holda yozish shart. Biroq gohida Ibrohim o'rni Ibragim, Rahim o'rni Rayim, Raim, Yoqub o'rni Yakup, Yakub, Jo'ra o'rni Djura, Zavra o'rni Zaura, O'ktam o'rni Oktam, Zokir o'rni Zaki, Zako'r, Vohid o'rni Vaxit, Hofiz o'rni Xapiz, To'xta o'rni Toxta, Qilichev o'rni Klichev, Ergashev o'rni Irgashev, Hayitova o'rni Xaitova kabi xato yozish holatlari uchrayapti.

Ba'zi ismlar arxivlashib, iste'moldan chiqib qolgan. Agar ismlarni affavit tartibida ko'rib chiqsak, A, B, G, D, J, Z, K, M, N, O, P, R, S, T, U, X, SH, E, O', L, H harflari bilan boshlanuvchi ismlar ko'pligini, Y, YE, YO, Y, F, F, CH, YU, YA, G' harflari bilan boshlanuvchilari esa ozligini bilib olamiz.

Xullas, ism bu insonning umr bo'yi yo'ldoshi. Uni tanlashda har tomonlama o'slab ko'raylik, ma'nosiga e'tibor beraylik.

Norquvvat TO'RAYEV.

Angor yog'dusi

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashi va tuman hokimligi

Muharrir:
JUMAYEVA
GAVHAR TOSHTEMIROVNA

Tahrir hay'ati:
J.Bahromov (hay'at raisi),
Sh.Murodov, A.Saidov,
M.Chorshanbiyeva, Sh.Omonov.

Gazeta 2012 yil 6 dekabrda viloyat matbuot va axborot xududiy boshqarmasida 11-054 raqami bilan qayta ro'yxatga olingan. Nashr indeksi 48643. Buyurtma 428. 1500 nusxada bosiladi. Hajmi -2 bosma toboq. Bichimi A-2. ISSN-2181-7014

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Internetdagi saytimiz: / angortimes.uz /

Gazeta "Angor yog'dusi" kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Sahifalovchi dizayner: S.Rahmatov Matn teruvchi: S.Qobulova

Tahririyat manzili: Angor qo'rg'oni, «8-Mart» ko'chasi, 15-uy. Tel: 76-31-21-367. Sotuvda erkin narxda.
Navbatchi muharrir: G.Jumayeva.

Gazeta «Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy. Topshirish vaqti 11:00 Topshirildi 11:30.